

**SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF ASARLARIDAN  
YOSHLARDAGI SHON- SHUHRATGA BO'LGAN MUHABBATNI OLDINI  
OLISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLAR**

**Ismoilova Shahzoda Nurali qizi**

*UrIU "Pedagogika va boshlang'ich*

*ta'lim metodikasi" kafedra o'qituvchisi*

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlarni ruhiy tarbiyalash har doimgidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu jumladan yoshlardagi shuhratparastlikning oldini olish ularni ruhiy barkamollikka erishishga turtki bo'lmoqda. Hozirgi kunda shuhrat ketidan quvish qalb kasalligiga aylanmoqda. Odam bolasi shuhrat ketidan quvadigan bo'lsa, xatolari ko'payishi va noshar'iy ishlarni qilish ehtimoli kuchayadi. Shuhratparastlik va mansabparastlik o'z egasini ko'pgina yaxshiliklardan to'sadi. Bu ikkisi ham qalb xastaliklaridan hisoblanib, goxida ularga berilib ketish odamni ko'pgina yomonliklarga va xusumatlarga boshlaydi. Yorug' dunyo oxirat ekinzoridir. Bu dunyodagi barcha narsadan oxirat uchun zodu rohila olish mumkin. Zarur oziq-ovqat va kiyim-kechak sotib olish uchun kerakli mol lozim bo'lgani kabi, odamlar bilan birga yashash uchun kerakli obro' ham lozim bo'ladi. Inson o'ziga kerakli oziq-ovqatni tark qilishi mumkin emas. Shuning uchun o'sha taomga va uni sotib oladigan molga muhabbat qo'yishi ham tabiiy narsa. Shuningdek, insonga bu dunyoda yashashi uchun boshqalar bilan aloqa qilish hojati tushadi. Uning yordam beradigan do'stga, ilm beradigan ustozga, xizmatini qiladigan harakat qilishning hech aybi yo'q. Chunki obro'-e'tibor maqsadga erishish vosialaridan biridir. Bas, shunday ekan, o'zi uchun obro'-e'tibor qoralanishi mumkin emas.

Shuhratparastlik dardiga muhtalo bo'lgan shaxs odamlarga yoqishdan boshqa narsani o'ylamay qo'yadi. U nima qilib bo'lsa ham, ko'pchilikka yoqish uchun ularga xushomad qilish yo'liga o'tadi. Gap-so'zini xatti-harakatini va bor buduni ularning oldida

o'zini ulug'lashga qaratish payida bo'ladi. Mana shuning o'zi munofiqlikning urug'i va fasodning boshlanishi bo'ladi. Termiziy va Axmad rivoyat qilishgan.

Termiziy va Axmad rivoyat qilishgan.

Mol-dunyo va shuhratga bo'lgan xirs o'z egasini barcha yomonliklardan qaytmaydigan qilib qo'yadi. Oqibatda u o'sha ikki narsa ortidan tushib dinini barbod qiladi. Shuning uchun dinimni bo'rilar yeb ketmasin, degan banda dunyoga va shuhratparastlikka hirs qo'ymasligi lozim. Bas, shuhratparastlik dardini davolash vojibdir. Bu davo ilm va amal bilan bo'ladi. Ilm bilan davolash quyidagicha: Shuhratparast avvalo nima uchun shuxratga muhabbat qo'ygani yaxshilab o'ylasin. Albatta, odamlarning o'zlariga va qalblariga ega bo'lish uchun bu narsa qachongacha davom etishi mumkin? Mabodo hech ofat yetmay, to'laligicha davom etganda ham, o'limigacha davom etadi, xolos. Shunday ekan, u narsaga bunchalik o'ch qo'ymasa?! Keyin shuhrat egalariga bir nazar solsin. Ularni turli-tuman xavfu xatarlar o'rab turmaydimi? Obro' va mansab egalariga barcha hasadgo'ylar hasad qilmaydimi? Ularga zarar yetkazish uchun poylab turmaydimi? Buning ustiga, shuhratparastlarning o'zlari shuhrat supasidan tushib qolishdan doimo qo'rqib turmaydilarimi? Kalblar qaynab turgan qozon kabidir. Shuxratparast qay bir kalbning rioyasini qilib ulguradi? Undan ko'ra shuhratparastlikning o'zini tark qilib qo'ygani yaxshi emasmi? Ana shunda u ko'pgina balolardan xalos bo'ladi. Ammo hech narsani yo'qotmaydi. Shuhratparastlikni amal bilan davolash:

Bu muolaja odamlarning qalbidan shuhratparastlikni tushiradigan ishlari amalga oshirish bilan bo'ladi. Podshohlardan biri mashhur zoxidni ziyorat qilish uchun yo'lga o'tlanibdi. Podshohning o'z manziliga yaqinlashib kelayotganini bilgan zohid ko'p taomlarni oldiga qo'yib, og'zini to'ldirib shosha-pisha yeyishga tushibdi. Buni ko'rgan podshohning xafsalasi pir bo'lib, ortiga qaytibdi.

### **Odamlarning maqtovi va tanqidi:**

Ko'pchilik odamlarning maqtovini yaxshi ko'rib, tanqidini yomon ko'rgani sababli halokatga uchraydi. Ularning barcha harakatlari odamlarning roziligini topishga, maqtoviga erishib, tanqididan qutulishga qaratilgan bo'ladi. Albatta, bu og'ir dard bo'lib, uni davolash zarur. Odamlarning maqtoviga o'ch bo'lish xastaligidan qutulish quyidagicha bo'ladi. Avvalo, odamlar sizni qaysi sifat ila maqtashayotganiga nazar soling. Agar o'sha sifat haqiqatan ham sizda bor bo'lsa, ikki xil bo'ladi:

Birinchisi – ilm va taqvo kabi xursand bo'lishga arziydigan sifat. Bunday holatda maqtalغان odam oqibatdan hozir bo'lishi kerak. O'sha qo'rqinch uni maqtovdan mast bo'lishdan saqlaydi. Bu narsalardan xursand bu o'xshaydika aylanadigan ko'kal xursand bo'lishga o'xshaydi. Bundan esa faqat esipastlargina xursand bo'ladi. Agar siz maqtalغان sifat sizda bo'lmasa ham, maqtovdan mast bo'ladigan bo'lsangiz, bu esipastlikdan boshqa narsa emas. Tanqidni yoqtirmaslik ham og'ir dard hisoblanadi. Uni ham erinmasdan, zudlik bilan davolash lozim. Bu boradagi gapning qisqasi quyidagicha: Agar sizni tanqid qilgan kishining gapi to'g'ri bo'lib, nasixatni iroda qilgan bo'lsa, g'azablanmasdan uning gapini yaxshi qabul qilish kerak. Chunki u sizga ayblaringizni hadya qilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, shuhrat va riyozat insonni turli yo'llarga boshlashi mumkin. Chunki inson boshqalar oldida shuhratga ega bo'lishi uchun har bir ishga tayyor bo'ladi. Bu esa insonni tubanlikka boshlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shavkat Mirziyoyev "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". "Xalq so'zi", 2017 yil 4- oktabr.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Ruhiy tarbiya"- Poklanish kitobi T: "Hilol nashr" 2023. 480b.
3. Karimova S.U. Markaziy Osiyo olimlarining o'rta asr Sharq ilmiy markazlardagi faoliyati // O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi. –Toshkent – Samarqand, 2007.